

JAMIYATDA YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISH VOSITALARI TAHLILI

Nazarova Zilola Baxtiyor qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Madaniyat va san'at sohasi menejmenti

Mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish vositalari haqida soʻz yuritiladi. Ayniqsa madaniyat va sanʼat sohasining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi oʻrni va ahamiyatiga alohida urgʻu beriladi.

Kalit soʻzlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, madaniyat va sanʼat, sport tadbirlari, madaniy tadbirlar, moddiy va maʼnaviy ragʻbat.

АНАЛИЗ СРЕДСТВ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: В статье говорится о средствах повышения социальной активности молодежи. Особое внимание уделяется роли и значению культуры и искусства в повышении социальной активности молодежи.

Ключевые слова: молодежь, социальная активность, культура и искусство, спортивные соревнования, культурно-массовые мероприятия, материальное и духовное поощрение.

ANALYSIS OF THE MEANS OF INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY IN THE SOCIETY

Abstract: The article talks about means of increasing the social activity of young people. Special emphasis is placed on the role and importance of culture and art in increasing the social activity of young people.

Key words: youth, social activity, culture and art, sports events, cultural events, material and spiritual encouragement.

Haqiqatan ham, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini taʼminlash yurtimizda davlat siyosati darajasiga koʻtarilib, doimo eʼtiborimiz markazida boʻlib kelmoqda. Buni keyingi ikki yilda shu sohaga oid 3 ta qonun, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining oʻnlab farmonlari, qaror va farmoyishlari qabul qilingani hamda shu asosda ulkan ishlar amalga oshirilgani ham yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri, hududlarda esa hokimlar raisligida Yoshlar

masalalari bo'yicha idoralararo kengashlar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya va "Yoshlar klubi" ish boshladi.

Yigit-qizlarimizning biznes loyihalari uchun "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tomonidan bugungi kunga qadar 692 milliard 400 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilib, 25 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilgani, respublikamiz bo'yicha 125 ta "Yoshlar mehnat guzari", 19 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi foydalanishga topshirilgani ayniqsa e'tiborlidir. Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, "Temurbeklar maktabi", "Prezident maktablari", "Ijod maktablari" deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Keyingi paytda umumxalq harakatiga aylanib borayotgan besh ijobiy tashabbusning mazmuni va ahamiyatini yoshlarimiz chuqur tushunib, uni amalga oshirishda faol ishtirok etayotganini biz albatta yuksak baholaymiz. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan katta qurilish va obodonchilik ishlari bilan birga, "Yoshlar kutubxonasi" turkumidagi 470 mingga badiiy adabiyotlar respublikamizdagi barcha maktablar hamda Yoshlar ittifoqining mahalliy kengashlariga bepul tarqatilgani muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoitlar ham bugun o'zining amaliy natijasini bermoqda. Buning tasdig'ini yosh sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, 520 ta oltin, 544 ta kumush, 588 ta bronza medaliga sazovor bo'lganida ham ko'rish mumkin. Azmu shijoatli, navqiron yigit-qizlarimizning o'z sohasida, jamoat ishlarida erishayotgan yutuqlarini munosib rag'batlantirishga davlatimiz tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, o'tgan yili ana shunday vatanparvar, fidoyi yuzlab yoshlarimiz "Do'stlik" ordeni va "Shuhrat" medali, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, "Kelajak bunyodkori" medali, "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni, O'zbekiston yoshlar ittifoqi mukofoti bilan taqdirlandi. Yana 28 nafar azamat yigitlarimiz yangi ta'sis etilgan "Mard o'g'lon" davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Bugun ularning saflariga yana bir guruh faol yoshlarimiz qo'shilayotgani barchamizni quvontiradi¹. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar fuqarolarning siyosiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Siyosiy madaniyat shaxsning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiribgina qolmay, balki shaxsning siyosiy ongi bilan siyosiy faoliyati birligini ham ifodalaydi. Shaxs siyosiy madaniyatining holati, darajasi qancha baland bo'lsa, uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ishtiroki shuncha yuqori bo'ladi. Jahon tajribasi ham,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. Manba: <https://president.uz>

o‘zimizning o‘tgan yillar tajribamiz ham shundan dalolat beradiki, jamiyatda amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning, jumladan, siyosiy islohotlarning ham ko‘zlangan yutuqlariga erishuvi, mazkur islohotlarning jamiyat a‘zolari tomonidan faol ravishda qo‘llab-quvvatlanishi orqali yuz beradi. Davlat bilan jamiyat o‘rtasida bo‘ladigan o‘ziga xos ijtimoiy hamkorlik taraqqiyotning garovi bo‘lib xizmat qiladi. Siyosiy madaniyat turli ijtimoiy guruhlarining davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlarga, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlatlar va millatlar bilan munosabatlar hamda shu kabilarga qarashlarining tizimga solingan nazariy ifodasidir. Demak, siyosat – davlatni, jamiyatni boshqarishda muayyan maqsadlariga erishishni ko‘zda tutushi, turli ijtimoiy guruhlar hamda davlat o‘rtasidagi munosabatlar muvozanatini saqlab turuvchi xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqib amalga oshiruvchi vositadir. Har bir mamlakatda nazariy bilimlar ancha chuqur va keng bo‘lsa, siyosat shu qadar mustahkam va real bo‘ladi. Siyosiy madaniyat, mafkura va ma‘naviyat darajasi jamiyat hayotida inson ishtiroki qandayligini belgilaydi. Qonun va qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishga munosabat bildirishadi.

Ma‘lumki, mafkuraning funksiyasi – aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, unga jamiyatning bugungi va kelgusidagi taraqqiyotini baholash, o‘zining mezonlarini joriy qilish, siyosiy makonda kishilar mo‘ljalladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir. Mafkura amalga oshirmoqchi bo‘lgan yo‘lning oqilona va xolisona obrazini yaratishga, uning u yoki bu sinf, millat, davlat manfaatiga mos kelishiga intiladi.

Xalqning siyosiy madaniyati yuksalgan sari u siyosiy jarayonlarga tobora yaqin kirib boradi. Ayni shu jarayonlarga kirib borgan xalq esa tez orada shu jamiyatning boshqaruvida bevosita ishtirok etadi. Hozirda davlatimiz oldiga qo‘ygan asosiy vazifasi ham shu xalqning, fuqarolarning jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta‘minlashdir. Islohotlarning taqdiri, samarali natijalar berishi va istiqboli aholining, ayniqsa, yoshlarning faolligiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog‘liq. Chunki davlatning ijtimoiy-siyosiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri shu mamlakat yoshlarining faolligi, aql-zakovati va fidoyiligidir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish uchun avvalombor kelajak vorisi bo‘lmish yoshlarning demokratik jarayonlarning chinakam ishtirokchisiga, demokratik qadriyatlarining faol himoyachisiga aylanishiga erishish lozim. Bu o‘ta murakkab vazifa yoshlarning siyosiy madaniyatini sobitqadamlik hamda qat‘iyat bilan yuksaltirib borishni talab etadi.

Xo'sh, yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish qanday amalga oshiriladi? Buning uchun ma'lum bir muassasa yoki tashkilot yoki fuqaroning o'zi mas'ulmikin? Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish, siyosiy madaniyat va siyosiy faollikni targ'ib etuvchi partiyalar zimmasiga qanday vazifa va mas'uliyat yuklanmoqda? Mas'uliyat yuki turmush tarzimiz hayotimizda aks etmoqdami? Ushbu savollarga ijobiy javob topish esa siyosiy partiyalar faoliyatidagi faollikni talab etadi. Shu bilan birga yoshlardan ham siyosiy jarayonlarga qiziqish, faollik va bilim talab etiladi. Mamlakatimizda yoshlar hayotiga doir qonunlar qabul qilishi, ularning haq-huquqlari belgilab berilishi, va albatta, har bir yoshning mazkur jamiyat fuqarosi sifatida siyosatda faol ishtirok etishini e'tiborga olish yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, yoshlarni siyosiy faolligini oshirish, siyosiy madaniyatlilik darajasining ko'tarilishi, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu o'rinda yoshlarni barkamol avlod darajasiga ko'tarilishi, siyosiy faol fuqaroga aylanishida siyosiy ta'lim-tarbiyaning to'g'ri amalga oshirilishi har jihatdan muhim. Siyosiy ta'lim-tarbiya – bu ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amaliy iqtidorining tarkib topishi, siyosiy harakat, faol hayotiy pozitsiyani vujudga keltirishidir. Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirib borish, avvalo oilada, maktabda, oliy o'quv yurtida, mehnat jamoalarida va ommaviy xizmat ko'rsatish joylarida amalga oshiriladi. Bu jarayon oilada, avvalo, ota-onaning ibрати, iliq oilaviy munosabatlar orqali amalga oshadi. Oila a'zolarining gazeta, jurnallar o'qish va tahlil qilishga qiziqishi, teledasturlarni muntazam kuzatib borishi yoshlar siyosiy madaniyatini o'sishiga xizmat qiladi. Yoshlar taqlidchan va qiziquvchan, tez o'rganuvchan bo'ladi. Shu jihatdan ularda mas'uliyat, ishtiyoq, "havasmandlik" kabi hissiyotlarni hisobga olish lozim. Shunday ekan, oilaning yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Shaxsning induviduallashtirish jarayoni qanchalar tezlashsa, uning ijtimoiylashuvi ham shu qadar tez shakllanib boradi. Natijada ularning asta-sekin barkamol avlod sifatida shakllanishi tez kechadi. Bunda asosiy rol ni maktab o'ynaydi. Maktab nafaqat shaxs, yoshlar e'tiqodini, oriyat, g'ururini, hissiyotini shakllantirish bilan birga odamiylik, dunyoqarash, dunyoni his etish, uni idrok etish va shu asosda kishilarga munosabatda bo'lish kabi hislatlarni shakllantirib borishning asosiy o'chog'idir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak². Zero, 2017–2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga alohida e'tibor berilgani ham bejiz emas. O'zbekiston

²Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 464 b.

Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 30-iyunning “Yoshlar kuni” deb e’lon qilinishi, 2018-yil 27-iyunda imzolangan “Yoshlar kelajagimiz” Davlat dasturi to’g’risida”gi Farmoni, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o’rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining tashkil etilganligi, O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli, 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi PF-5106-son, 2020-yil 30-iyundagi “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6017-son, 2021-yil 3-fevraldagi “2017 – 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasini “yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida” PF-6155-son, 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash va bandligiga ko’maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PF-6208-son farmonlari, shuningdek, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-son, 2020-yil 30-iyundagi “O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-4768, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5040-son qarorlari, 2019-yilning 19-mart kuni o’tkazilgan videoselektordagi Prezidentimizning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo’yicha 5 ta muhim tashabbus, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-apreldagi “Milliy madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo’shgan san’atkorlarni hamda o’zbek san’atini dunyo sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish etib kelayotgan yoshlarni qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 271-son, 2019-yil 26-avgustdagi “Andijon viloyatida yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to’g’risida”gi 718-son, 2019-yil 21-noyabrdagi “Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to’g’risida”gi 923-son, 2021-yil 18-yanvardagi “O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 23-son, 2021-yil 11-martdagi “Yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida³gi 132-son qarorlari³, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik Palatasining 2020-yil 4-sentabr "Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirish jarayonida yoshlar ishtirokini yanada faollashtirish to'g'risida"gi qarori⁴ ham mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. Manba: <https://president.uz>
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 464 b.
3. www.lex.uz
4. <https://lex.uz/docs/-5188331>

³ www.lex.uz

⁴ <https://lex.uz/docs/-5188331>